

# RF – SANOAT QURILISH BANK

Mamlakat:	O'zbekiston
Loyiha raqami:	52264
Faoliyat sohasi:	Moliyaviy muassasalar
Bildirishnoma turi:	Xususiy
Ekologik toifasi:	FI
Tasdiqlangan kuni:	2020-yil 16-iyun
Qaysi bosqichdaliqi:	Tasdiqlandi
Loyihaning qisqacha mazmuni ingliz tilida chop etilgan sana:	2020-yil 29-sentabr

## Loyiha mazmuni

Ushbu loyiha Bankning COVID-19 pandemiyasiga javobi doirasida ma'qullandi. Loyihaning amalga oshirilishini kechiktirmaslik maqsadida Bank prezidenti Axborotdan erkin foydalanish siyosatining V bo'limiga muvofiq loyihaning qisqacha mazmuni (LQM) odatiy muddatlardan og'gan holda chop etilishiga ruxsat berdi. Bankning COVID-19 ga javobi va ushbu og'ish haqida batafsil ma'lumotni bizning veb-saytimizda topishingiz mumkin.

Barqarorlikni ta'minlash dasturi doirasida "Sanoat Qurilish Banki" (SQB) ga 25 million AQSH dollarigacha bo'lgan birinchi navbatdagi ta'minotsiz kreditni sintetik o'zbek so'mi yoki AQSH dollarida taqdim etish. Kredit tushumlari SQB tomonidan O'zbekistonning biznes korxonalariga birlashtirilgan Kredit siyosatiga asosan yo'naltiriladi.

## Loyiha maqsadi

Taklif etilayotgan loyiha SQB ga: (i) tegishli sub-qarz oluvchilar faoliyatini milliy valyutada moliyalashtirish imkonini beradi, bu esa moliyaviy sektorning barqarorligini oshiradi; va (ii) COVID-19 pandemiyasi sharoitida bozorning noqulay sharoitlariga javob tariqasida mahalliy xususiy korxonalarni kreditlashdagi bozor ulushini ushlab turish va kengaytirish imkonini beradi.

## O'tish davri ta'siri

Kutilayotgan o'tish davri ta'siri (KO'DB) bahosi: 80;

## Mijoz haqida

SANOAT QURILISH AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI (SQB)

SQB O'zbekistonda tashkil etilgan dastlabki bank bo'lib, u 2020-yil 30-aprel holatiga ko'ra mamlakatdagi banklar orasida o'z aktivlari bo'yicha ikkinchi o'rinni egallaydi. Bank aksiyalarining nazorat paketi O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi (82,1%) va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (12,8%) orqali davlatga tegishlidir. Bank universal bank xizmatlari ko'rsatish biznes modeliga asoslanib, 56,000 korporativ mijozlarni tarkibiga olgan

1 milliondan ortiq mijozlarga 45-filiallar va 170-xizmat ko'rsatish shahobchalari orqali xizmat ko'rsatadi. Hozirda SQB da o'z biznes modelini tijoratlashtirish va uni bosqichma-bosqich xususiylashtirishni ko'zda tutuvchi Transformatsiya jarayoni davom etmoqda.

## **YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag'lar**

25 000 000,00 AQSH dollari

## **Loyihaning umumiy qiymati**

25 000 000,00 AQSH dollari

## **Ekologik-ijtimoiy xulosa**

FI toifasiga kiritildi (ESP 2019) SQB YTTBning Savdoga ko'maklashuvchi dasturning (TFP)<sup>1</sup> joriy mijozni hisoblanadi va yaqinda kichik va o'rta biznes korxonalari (KO'BK)ni moliyalashtirishga yo'naltirilgan kredit liniyasini imzoladi. KO'BK kredit liniyasi uchun o'tkazilgan Ekologik va ijtimoiy ekspertiza mijozning Atrof-muhit va ijtimoiy masalalar bo'yicha boshqaruv tizimi (AIMBT) Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan qayta ko'rib chiqilayotganiga ishonch hosil qildi. Mijozning AIMBTi loyiha talablari (PR)<sup>2</sup> hisoblangan PR9 shartlariga javob beradi, shuningdek, mijozdan ESP-2019 yo'llanmalari va istisnolar ro'yxatlariga rioya qilish talab etiladi. Qarz oluvchi YTTBning PR2 va PR4 shartlariga va Korporativ hamda KO'BK mijozlar uchun ishlab chiqilgan Ijtimoiy risklarni boshqarish shartlariga amal qilishda davom etadi. SQB har yili YTTBga ekologik va ijtimoiy sohaga oid hisobotlarni taqdim etishi shart.

## **Texnik ko'mak va grant asosida moliyalashtirish**

SQB avvalgi loyihalar doirasida boshlangan Texnik ko'maklardan (TK) foydalanishda davom etadi: " O'zbekistondagi moliyaviy vositachi muassasalarning salohiyatini oshirish TK dasturi " (TCRS 8332, loyiha umumiy qiymati 5 million EUR, TK Qo'mitasin tomonidan 12/07/2017 da tasdiqlangan). SQBga ajratilgan ko'mak KO'BK ni kreditlash va G'aznachilikni rivojlantirishga yo'naltiriladi. TK ning 15% qiymati SQB tomonidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan.

SQB, shuningdek "Markaziy osiyo uchun mintaqaviy kichik biznes TK dasturi" (TCRS 7579) doirasida markazlashgan treninglarda va masofaviy ta'lim dasturlaridan foydalanadi. COVID-19 pandemiyasi tufayli to'xtatilgan sinfxonalardagi treninglar pandemiya cheklavlari tugashi bilan yana amalga oshiriladi; COVID-19 pandemiyasi sharoitida yuzaga kelgan bozorning noqulay sharoitlari SQB tomonidan kreditning samarali o'zlashtirilishiga ta'sir o'tkazmasligi kutilmoqda.

---

<sup>1</sup> Trade Facilitation Programme

<sup>2</sup> Project Requirements

## Qo'shimchalilik

Taklif etilayotgan KO'BK kredit liniyasi mahalliy KO'BK larning hozirda cheklangan moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kuchaytirishda qo'shimcha bo'ladi. Moliyalashtirish imkonini yaratuvchi va mahalliy ishtirokchilarga nou-hauni o'rgatuvchi xususiy investorlar va xalqaro moliyaviy muassasalarning mamlakatdagi ishtiroki ayni kunlarda kamligi sharoitida, YTTBning ahamiyati ko'proq xususiy investorlarni jalb qilish orqali namoyon bo'ladi. Mahalliy bozorda kuchli ishtirokchi bo'lgan SQB bilan YTTBning hamkorligi moliya tizimida raqobatbardosh va tijoriy biznes modelga o'tish jarayonini tezlashtiradi.

## Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot

Umumiy ma'lumotlar uchun [info@uzpsb.uz](mailto:info@uzpsb.uz)

+998 71 200 43 43

<https://uzpsb.uz>

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Shahrissabz ko'chasi 3-uy, 100000

## O'sh davri nima

O'sh davri ta'sirini baholash bo'yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo'shimcha ma'lumot bilan mana bu [havola](#) da tanishishingiz mumkin.

## Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling.

YTTB bilan (xaridlarga oid bo'lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog'laning:

Tel: +44 20 7338 7168

E-manzil: [projectenquiries@ebrd.com](mailto:projectenquiries@ebrd.com)

Davlat sektoridagi loyihalar uchun [YTTB xaridlari](#) sahifasiga o'ng:

Tel: +44 20 7338 6794

E-manzil: [procurement@ebrd.com](mailto:procurement@ebrd.com)

## Umumiy ma'lumotlar

Aniq so'rovlar [YTTB so'rovlar shakli](#) dan foydalangan holda berilishi mumkin.

## Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o'zining "ekologik jihatdan mas'ul va barqaror rivojlanish" tashabbusini ilgari surishda [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) va uning tarkibiy qismi bo'lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo'llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta'minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o'z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta'sirining mohiyati va ko'lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug'ilganda, YTTB o'z mijozlaridan qo'shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta'sirlari haqida ma'lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko'rilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar ESPning quyidagi [sahifasida](#) keltirilgan.

## Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me'yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas'uliyatli boshqaruvga ko'maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg'or xalqaro tajribalarga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo'lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo'l qo'yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko'ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika chora-tadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste'mol qilish bo'yicha ma'lumotni tekshiruvchi mas'ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo'lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig'iga bu holat haqida yozma tarzda [compliance@ebrd.com](mailto:compliance@ebrd.com) electron pochta orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma'lumotlar tegishli choralar ko'rish uchun OCCO tomonidan ko'rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonym tarzidagi xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma'lumotlar yaxshi niyatni ko'zlashi maqsadga muvofiqdir.

## Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko'maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni ochiqlash bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. Mavjud ma'lumotlar bilan tanishib chiqish uchun YTTB veb-saytidagi [Axborotdan erkin foydalanish siyosati](#) sahifasiga o'ng.

Muayyan savollaringizni [YTTBning ma'lumot so'rovi](#) orqali yuborishingiz mumkin.

## Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita o'zaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga bo'lgan urinishlari samarasiz bo'lsa, ular YTTBning hisobdorlik mexanizmi ya'ni loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi yordamida (IPAM) o'zlarining o'sha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM), arizachilarning fikriga ko'ra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning vazifalari quyidagilardan iborat: - ekologik-ijtimoiy va axborotni oshkor etish bo'yicha muammolarni hal qilish uchun loyiha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rnatish va muloqotlarni olib borish; - Bank tomonidan ishlab chiqilgan [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) talablariga, shuningdek loyihaga oid tegishli [Axborotdan erkin foydalanish siyosati](#) qoidalariga rioya qilinishini baholash; - zarurat tug'ilganda, ushbu mezonlarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, kelgusida Bank tomonidan ularni buzish holatlariga nisbatan ko'riladigan choralarini ko'zda tutish.

Shikoyatlarni [maxfiy elektron shakl](#) yordamida [elektron pochta](#), [pochta yoki telefon](#) orqali qanday yuborish haqidagi ma'lumot bilan [veb-saytimizda](#) tanishishingiz mumkin. Biz xavotirlaringizni, shuningdek shikoyatlarni jo'natish va ko'rib chiqish bilan bog'liq har qanday masalalarni muhokama qilishga tayyormiz. Kerak bo'lsa, arizachilarning shaxsiy ma'lumotlarini maxfiy saqlaymiz.